

JAMOAT XAVFSIZLIGI BOSHQARUVIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK: XALQARO TAJRIBALAR, MODELLASH VA QIYOSIY-HUQUQIY TAVSIYALAR

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu.f.d.

Saidov Sharofiddin Abdug'aniyevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18361141>

Annotatsiya. Maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanish bo'yicha xorijiy amaliyotlar qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot DXShning xavfsizlik sohasidagi normativ modeli, institutsional arxitekturasini hamda davlatning ekskluziv vakolatlari bilan xususiy sektor ishtiroki mumkin bo'lgan funksiyalar o'rtasidagi muvozanatni aniqlashga qaratilgan. Xorijiy tajribalar misolida "Safe City" va videokuzatuv infratuzilmasi, transport va ob'ekt xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarga tezkor javob tizimlari, xususiy qo'riqlash, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar boshqaruvi kabi yo'nalishlarda DXShning samaradorlik shartlari yoritiladi. Shuningdek, risklarni taqsimlash, shartnomaviy dizayn, KPI/SLA orqali natijadorlikni baholash, davlat nazorati, shaffoflik hamda korrupsiyaga qarshi komplaens kabi huquqiy-institutsional elementlar tahlil qilinadi. Yakunda milliy tizimga moslashtirish uchun qiyosiy tajribadan kelib chiqadigan konseptual xulosalar va normativ takomillashtirish yo'nalishlari shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik; jamoat xavfsizligi; xorijiy tajriba; qiyosiy-huquqiy tahlil; Safe City; kiberxavfsizlik; risklarni taqsimlash; KPI/SLA; davlat nazorati; komplaens.

Аннотация. В статье представлен сравнительно-правовой анализ зарубежных практик применения государственно-частного партнёрства (ГЧП) в обеспечении общественной безопасности. Исследование направлено на выявление нормативных моделей и институциональной архитектуры ГЧП, а также на определение баланса между исключительными полномочиями государства и функциональными сегментами, допускающими участие частного сектора. На материалах зарубежного опыта рассматриваются направления «Safe City» и инфраструктура видеонаблюдения, безопасность транспорта и объектов, системы оперативного реагирования при чрезвычайных ситуациях, частная охранная деятельность, кибербезопасность и управление данными. Анализируются механизмы распределения рисков, договорный дизайн, оценка результативности через KPI/SLA, инструменты государственного контроля, требования прозрачности и антикоррупционного комплаенса. В заключении формулируются выводы и рекомендации по адаптации успешных зарубежных решений для совершенствования национального регулирования и практики ГЧП в сфере общественной безопасности.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство; общественная безопасность; зарубежный опыт; сравнительно-правовой анализ; Safe City; кибербезопасность; распределение рисков; KPI/SLA; государственный контроль; комплаенс.

Abstract. This article offers a comparative legal review of foreign practices in applying public-private partnerships (PPPs) to public safety governance. It aims to identify prevailing regulatory models and institutional architectures, and to clarify the balance between the state's exclusive security mandate and functional segments where private-sector participation is lawful

and effective. Drawing on international experiences, the paper examines PPP applications in “Safe City” and video surveillance infrastructure, transport and facility security, emergency response systems, private security services, cybersecurity, and data governance. It further analyzes core legal and institutional design elements, including risk allocation, contract structuring, performance assessment through KPIs/SLAs, public oversight tools, transparency requirements, and anti-corruption compliance. The article concludes with policy-oriented recommendations on adapting proven foreign solutions to strengthen the national legal framework and practice of PPP-based public safety initiatives.

Keywords: public-private partnership; public safety; foreign experience; comparative legal analysis; Safe City; cybersecurity; risk allocation; contract design; KPIs/SLAs; compliance.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi raqamli infratuzilma, tezkor servis va kompleks boshqaruv qarorlariga tobora ko'proq tayanmoqda. Shu sharoitda DXSh xavfsizlik sohasida innovatsiyalarni jadallashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirishning muhim institutsional instrumenti sifatida shakllanmoqda. Biroq xavfsizlikka oid funksiyalar ommaviy manfaatlar va davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli, xorijiy tajribani ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki normativ-huquqiy muvofiqlik, inson huquqlari kafolatlari, shaffoflik va hisobdorlik mezonlari asosida tanlab moslashtirish talab etiladi. Mazkur maqola DXSh bo'yicha ilg'or xorijiy amaliyotlarni qiyosiy tahlil qilib, milliy tizim uchun konseptual xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Xorijiy mamlakatlar xavfsizlik siyosatida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini ushbu siyosatni samarali amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa, dunyo mamlakatlarida uchrayotgan noan'anaviy tahdidlar dolzarblashgan bugungi kunda, har qanday jamiyatning ajralmas qismi hisoblangan, insonlar, ijtimoiy guruh hamda institutlar “istiqomat qiladigan” makon bilan bevosita bog'liq bo'lgan jamoat xavfsizligini, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan aniq yoki ehtimolli tahdidlardan muhofaza qilish hamda ushbu faoliyatning samarali ishlashini ta'minlash va doimo takomillashtirib borish tobora ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda.

MDHga a'zo ayrim davlatlarning qonunchilik tizimida xavfsizlik sohasidagi munosabatlar alohida “Xavfsizlik to'g'risida”gi qonun orqali tartibga solingan. Jumladan Rossiya Federatsiyasining “Xavfsizlik to'g'risida”gi qonunida xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlatning hayot uchun muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati deb ta'rif berilgan¹. Bunda hayot uchun muhim manfaatlar shaxs, jamiyat va davlatning mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun ishonchli ta'minlaydigan ehtiyojlar yig'indisi deb tushuncha berilgan. Xavfsizlikning asosiy obyektlariga shaxs uning huquq va erkinliklari, jamiyat uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, davlat va uning konstitutsiyaviy tuzimi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi kiradi².

¹ Федеральный Закон “О безопасности” N 390-ФЗ Российской Федерации от 28 декабря 2010 года [электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.internet-law.ru/law/inflaw/sec.htm>. – Дата обращения: 02.10.2022.

² Маматкулов С.С. “Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш ўзбекистон республикаси жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим омили сифатида” магистирлик дис. -Т., 2011. – 12 б.

Qozog'iston Respublikasining "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi qonunida jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xavf va tahdidlardan fuqarolarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy himoyalangan holati deb ta'rif berilgan³.

Xususan, xorijiy davlatlarning jamoat xavfsizligini ta'minlovchi harbiy bo'linmalarini tashkil etish va faoliyati masalalari huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilib⁴, ular o'z asarlarida xorijiy mamlakatlar jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar faoliyatining turli jihatlarini ko'rib chiqqanlar⁵.

Rossiyalik ekspert N. Agazaryanning yozishicha, davlat-xususiy sheriklikning dunyo miqyosidagi rivoji uchta bosqichga bo'linadi⁶.

Birinchi bosqich: Lotin Amerikasi, Sharqiy Yevropa, shuningdek, MDH mamlakatlari turibdi. Ular tomonidan sheriklik uchun huquqiy hujjatlar va standartlarni ishlab chiqish ustida ish olib borilmoqda, bu yo'nalishdagi bozorni shakllantirishga, birinchi navbatda joriy etiladigan loyihalarni aniqlashga kirishilmoqda. Tahlilchining ta'kidlashicha, ushbu mamlakatlar davlat-xususiy sheriklikni qay yo'sinda amalga oshirish kerak, bu boradagi xatarlar (risk) qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yetarlicha tushunmasdan shunday hamkorlikni yo'lga qo'yishga harakat qilishmoqda.

Ikkinchi bosqich: AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarni qamrab oladi.

Ularda davlat-xususiy sheriklik tuzilmasi shakllantirilgan, normativ-huquqiy baza yaratilgan, yangi sektorlar qo'shilgan holda bu sohadagi loyihalar qamrovi kengaytirilgan.

Uchunchi bosqich: faqatgina Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya va Irlandiya egallashgan, xolos. Bu mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi takomillashgani, uning rivoji yo'lidagi huquqiy to'siqlar bartaraf qilingani, sheriklik loyihalari bo'yicha ma'lum oqim paydo bo'lgani, infratuzilma sohasida bunday hamkorlikka qo'shilish istagidagi investorlar soni ko'paygani kuzatiladi.

Davlat-xususiy sheriklikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat sherigining va xususiy sherikning qonun oldida tengligi;

davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi;

xususiy sherikni tanlashdagi bahslashuv va xolislik;

kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiy jihatdan qaraganda, davlat-xususiy sheriklik alohida institutsional va boshqaruv munosabatlarini talab etadi. Jamiyatning rivojlanishi institutlarning qisman sheriklik asnosida, jamiyatning institutsional bazasini saqlab qolish asosida tashkil

³ Закон Республики Казахстан «О национальной безопасности Республики Казахстан» от 6 января 2012 года № 527-IV [электронный ресурс]. – Режим доступа: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31106860. – Дата обращения: 02.10.2022.

⁴ Помимо США, национальная гвардия организована и функционирует в Испании, Республике Кипр, Никарагуа, Пакистане, Сальвадоре, Саудовской Аравии, Хорватии, Шри-Ланке.

⁵ Отдельные аспекты функционирования национальной гвардии Испании освещены в работах: Бондарь Е.О. Правовые основы организации и деятельности полиции Испании : автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2002. 25 с.; Цымбалова А.Е. Проблемы обеспечения этнополитической безопасности Королевства Испании: концепции, институты и технологии [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://cheloveknauka.com/problemny-obespecheniya-etnopoliticheskoy-bezopasnosti-korolevstva-ispanii>. – Дата обращения: 03.04.2016.

⁶ Замира Тожиева, «BOZOR, PUL VA KREDIT» илмий амалий журнал, «БПК», 2019 й. 3-сон, 2019 й

etilgan davlat mulkini tasarruf etuvchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xususiy subyektlari bilan birga rivojlanish yo'lini tutmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik modelining ko'plab xorijiy davlatlarda qo'llaniladi va bu borada turli muvaffaqiyatli tajribalar mavjud.

Xususan, Buyuk Britaniyada davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash tajribasi keng qo'llaniladi. Mazkur mamlakatda davlat-xususiy sheriklik xizmatidan asosan yirik sport tadbirlari va konsertlar xavfsizligi, transport xavfsizligini ta'minlashda politsiya bilan birgalikda, kameralar va monitoring xizmatlarini samarali qo'llagan holda foydalanishi yo'lga qo'yilgan.

Buyuk Britaniyada jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklikning o'ziga xos modeli mavjud bo'lib, mazkur modelning tashkil etilishi bir necha asosiy elementlarga asoslanadi.

Ulardan eng asosiylaridan biri jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik modeli mustahkam huquqiy asosga ega ekanligi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda muayyan davlat-xususiy sheriklikni tartibga soluvchi qonuni amalda mavjud bo'lmasa-da, davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha Yevropa Ittifoqining qonunchiligi mavjud. Shunga ko'ra, namunaviy shartnomalar va yo'riqnomalar markaziy hukumat tomonidan e'lon qilinadi, ular kelishilgan darajada bajarilishi lozim bo'ladi va ba'zi davlat idoralari o'z vakolatlariga bo'ysunadigan alohida sektorlar uchun namunaviy shartnomalar chiqaradilar⁷.

Ta'kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun maxsus shartnomalar tuziladi, ularga ko'ra xususiy kompaniyalarga konsessiyalar beriladi. Bu konsession shartnomalar xususiy sektorni moddiy ra'batlantirish va xavfsizlik xizmatlarini ko'rsatishda aniqlikni ta'minlash imkonini beradi.

Buyuk Britaniyaning davlat-xususiy sheriklik modelining yana biri asosiy elementi jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik loyihalari ustidan davlat nazoratining mavjudligida o'z aksini topadi. Bunda xususiy kompaniyalar tomonidan xizmatlar sifati va xavfsizligi davlat tomonidan monitoring qilinadi hamda audit o'tkaziladi. Bu esa o'z navbatida, shaffoflikni ta'minlaydi va xizmatlarning sifati doimiy nazoratda bo'lishini kafolatlaydi. Mamlakatda davlat-xususiy sheriklik loyihalari ustidan nazorat davlat va xususiy sektor o'rtasida shaffof va samarali hamkorlikni ta'minlashda Davlat G'aznachiligi (Her Majesty's Treasury - HMT)⁸: davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy jihatlarini, Transport vazirligi (Department for Transport)⁹: transport bilan bog'liq xavfsizlik loyihalarini, Ichki ishlar vazirligi (Home Office)¹⁰: xavfsizlik va tartibni saqlash bilan bog'liq loyihalarni nazorat qilib kuzatib boradi.

Alexander Hadrill Buyuk Britaniyada davlat-xususiy sheriklik uchun quyidagi davlat organlari javobgarligini alohida ko'rsatib o'tadi:

davlat xarajatlarini nazorat qiluvchi va davlat-xususiy sheriklik bo'yicha umumiy yo'nalish va siyosatni belgilovchi Davlat G'aznachiligi (Her Majesty's Treasury - HMT);

⁷ Simmons & Simmons. Public Private Partnerships in the United Kingdom// <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=18fc6332-5ad1-4b5d-b69c-8b47d308bd99> (murojaat sanasi: 11.06.24)

⁸ <https://www.gov.uk/government/organisations/hm-treasury>

⁹ <https://www.gov.uk/government/organisations/department-for-transport>

¹⁰ <https://www.gov.uk/government/organisations/home-office>

davlat funksiyalari va xaridlar standartlari va samaradorligini nazorat qiluvchi va xaridlar tuzilmalarini tasdiqlovchi Vazirlar Mahkamasi apparati;

infratuzilma va loyihalar boshqarmasi (IPA), bu uzoq muddatli rejalashtirishni muvaffaqiyatli loyihalarga aylantirishga yordam beradi¹¹.

Bunda mamlakatda mustaqil nazorat va audit organlari ham mavjud bo'lib, jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini baholash va nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Milliy Audit idorasi (National Audit Office - NAO)¹²: jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy samaradorligini baholaydi va audit qilsa, Xavfsizlik xizmatlari bo'yicha mustaqil inspeksiya (Her Majesty's Inspectorate of Constabulary and Fire & Rescue Services - HMICFRS)¹³: politsiya va xavfsizlik xizmatlarini nazorat qiladi va baholab boradi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada mahalliy hukumat idoralari va jamoat tashkilotlari ham jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ustidan nazoratda ishtirok etishi ham muhim element sanaladi. Bunda mahalliy hukumat idoralari va jamoat tashkilotlari loyiha haqida mahalliy aholidan fikr-mulohazalarni yig'ish va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlarning jamoa ehtiyojlariga moslashishini ta'minlaydi.

Buyuk Britaniyada mahalliy hukumat idoralari va jamoat tashkilotlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ustidan nazoratda ishtirok etishi ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ushbu masalani chuqur tahlil qilgan quyidagi olimlar turli nuqtai nazar va qarashlar bildiririb o'tganlar.

Xususan, garchi yadroviy nazorat qiluvchi organlar shaffoflikni oshirish jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlarning aholi salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda jamoat xavfsizligi va xavfsizligini ta'minlashdagi rolga ishonchini oshirishga xizmat qilishini tushunishlariga qaramay, ular haqiqatni aytish va odamlarni qo'rqitish o'rtasida to'g'ri muvozanatni saqlay olmaydilar. Har bir davlat-xususiy sheriklik loyihalarida shaffoflik amaliyotini amalga oshirish madaniy kontekstga, manfaatdor tomonlarni jalb qilish amaliyotiga yoki zarur resurslarning mavjudligiga (yetishmasligi) qarab farqlanadi¹⁴.

Bunda mahalliy hukumat idoralari DXSH loyihalarida muhim o'rin tutib, loyiha jarayonlarini boshqarish va monitoring qilish orqali xavfsizlikni ta'minlashda o'z hissalarini qo'shadi. Mahalliy hukumat idoralari tomonidan amalga oshirilgan nazorat loyihalarining sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu o'rinda DXSH loyihalarini uchun zarur infratuzilma va xizmatlarni taqdim etishda mahalliy hukumatlarning muhimligini inobatga olsak, mahalliy hukumatlar DXSH loyihalarida faqat nazoratchi sifatida emas, balki ijro etuvchi sifatida ham faol ishtirok etishi lozim.

Ta'kidlash joizki, Buyuk Britaniyada jamoat tashkilotlarining DXSH loyihalarini ustidan nazoratda ishtirok etishi jamoatchilik ishonchini mustahkamlanishini ko'rsatadi,

¹¹ Alexander Hadrill, The Public-Private Partnership Law Review. (Sixth edition) Printed in Great Britain by Encompass Print Solutions, Derbyshire // <https://www.bclplaw.com/a/web/186418/3WLGy9/united-kingdom.pdf>

¹² <https://www.nao.org.uk/>

¹³ <https://www.gov.uk/government/organisations/hm-inspectorate-of-constabulary-and-fire-rescue-services>

¹⁴ Perko T, Martell M, Turcanu C. 2020. Transparency and stakeholder engagement in nuclear or radiological emergency management. Radioprotection 55(HS2): S243–S248 (<https://doi.org/10.1051/radiopro/2020040>)

shuningdek, ularning faol ishtiroki loyihalarga bo'lgan ishonchni oshirib, jamoa o'z nomidan turib kuzatishni amalga oshirish imkonini beradi. Buning natijasida jamoat xavfsizligini ta'minlashda yuqori darajadagi shaffoflik va hisobdorlikni saqlash orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Germaniyada jamoat xavfsizligini ta'minshda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik ham samarador ko'rinishda namoyon bo'lib, davlat va xususiy sektorga oid tashkilotlar, hukumat idoralari, politsiya va xavfsizlik xizmatlari birgalikdagi muvofiqlashtirilgan harakatlari yo'lga qo'yilgan. Germaniyada jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklikning o'ziga xos modeli mavjud bo'lib, ushbu modelning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Jamoat tartibini saqlash;
- Jinoyatchilikni kamaytirish;
- Favqulodda vaziyatlarda tezkor reaksiya ko'rsatish;
- Xavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash.

Germaniyada davlat-xususiy sheriklik modeli o'zida yangi texnologiya va innovatsiyalarni qamrab olib huquqbuzarliklarni oldini olish, bartaraf etish hamda aniqlashda samarali foydalanib kelinmoqda. Xususan, xavfsizlik kameralarining keng foydalanilishi, digital kuzatuv tizimlari va sun'iy intellektning qo'llanilishi jiddiy yutuqlarga olib kelmoqda. Bu yondashuv nafaqat jamoat joylarida yanada kuchliroq xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi, balki jinoyatlar oldini olish va qayd etilgan hodisalarni tezkorlik bilan tahlil qilish imkonini ham yaratadi.

Aytish joizki, bunda mamlakatda xususiy xavfsizlik xizmatlari shaxs va mulkni himoya qilish bo'yicha ko'p sonli vazifalarni, shuningdek, boshqa xavfsizlik xizmatlarini ham o'z zimmasiga oladi. 2010 yilda 170 000 dan ortiq ishchi mamlakat xavfsizligini ta'minlovchi davlat organlarida faoliyat yuritgan bo'lsa, 4 000 ga yaqin xodim xususiy xavfsizlik kompaniyalarida ishlagan¹⁵.

Mamlakatda 20 yil oldin xususiy xavfsizlik xizmatlarining faoliyat sohasi mulk va zavod xavfsizligi, shaxsiy eskort, porter va telefon xizmatlari, avtotransport vositalarini qo'riqlash, naqd pul va qimmatbaho narsalarni tashish va univermag nazorati kabi xizmatlar bilan cheklangan bo'lsa hozirgi kunga kelib atom elektr stantsiyalarini, elchixonalarni va tadbirlarni (Bundesliga o'yinlaridan Yevropa Ittifoqi konferensiyalarigacha) himoya qilish, poezd stantsiyalari xavfsizligi, signalni kuzatish bilan favqulodda chaqiruv markazlari orqali signal monitoringi, ma'lumotlarni himoya qilish choralari, video kuzatuv, umumiy xavfsizlik tahlili va maslahati, yo'lovchilarni tekshirish, qo'riqlash va boshpana izlovchilar uylarini, deportatsiya qamoqxonalari va psixiatriya muassasalarini boshqarish, shuningdek, statsionar transport va pullik ijro xizmatlarini tekshirish kabi tobora ko'proq xususiy provayderlar uchun mustaqil biznes sohalariga aylangan.

Xavfsizlik kompaniyalari asosan shaxsiy mijozlarni himoya qilish uchun faoliyat yuritadi. Xususiy xavfsizlik kuchlariga faqat o'z mijozlari ega bo'lgan huquqlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Ular faqat har kim qonuniy ravishda amalga oshirishi mumkin bo'lgan aralashish vakolatiga ega, xususan, fuqarolik himoyasi va o'z-o'ziga yordam huquqlari, jinoyatdan o'zini o'zi himoya qilish va hibsga olish huquqlari.

¹⁵ <https://www.bpb.de/themen/innere-sicherheit/dossier-innere-sicherheit/76663/private-sicherheitsdienste/>

Misol uchun, diskotekaga faqat o'z mijosi ega bo'lgan uy-joy huquqlaridan foydalanishga ruxsat beriladi. Bunda uchinchi shaxslarga nisbatan faqat o'zini himoya qilish holati mavjud bo'lsa (masalan, u yoki boshqa shaxs hujumga uchrasa) xususiy xavfsizlik xodimlari tomonidan jismoniy zo'ravonlik qo'llanishi mumkin.

Insonlarning hayoti va mulkini tijoriy himoya qilish (pul transporti, bino xavfsizligi, shaxsiy himoya va boshqalar) savdo litsenziyasini talab qiladi va savdo nazorati ostida bo'ladi¹⁶. Xavfsizlik pudratchilari va ularning xavfsizlik xodimlariga faqat xavf ostida bo'lgan shaxs yoki obyekt qo'riqlanadigan bo'lsa va tegishli organ tomonidan qurol-yarog to'g'risidagi qonun¹⁷ ruxsatnomasi berilgan bo'lsa, qurol olib yurishga ruxsat beriladi.

Germaniyada jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat va xususiy sektor o'rtasida muntazam ravishda o'zaro muloqot va hamkorlikni kuchaytirish maqsadida muntazam ravishda kengashlar va forumlar tashkil etilib boriladi. Bunda platformalar orqali xavfsizlik masalalari muhokama qilinadi va tajribalar almashiladi.

Shunday xususiy sektorlardan biri Eynshteyn raqamli kelajak markazi (Das Einstein Center Digital Future ECDF) bo'lib, Berlindagi raqamlashtirish tadqiqotlarini olib borishga ko'maklashadigan markaz hisoblanadi. Mazkur markaz faoliyati 30 dan ortiq kompaniya, tashkilot, Berlindagi to'rt universitet va boshqa o'ndan ortiq Berlin tadqiqot institutlari o'rtasida keng ko'lamli davlat-xususiy sheriklik modeliga asoslanadi. 38,5 million yevro bilan moliyalashtiriladigan Eynshteyn raqamli kelajak markazining asosiy maqsadi Berlining raqamlashtirish sohasidagi ishtirokchilari bilan aloqa o'rnatish, hamkorlikning yangi shakllarini sinab ko'rish, innovatsion va fanlararo tadqiqotlarni ilgari surish va butun dunyodan ajoyib yosh olimlarni jalb qilish hisoblanadi. 2017-yil 3-aprelda ochilganidan beri olimlar raqamli infratuzilma, usullar va algoritmlar, raqamli salomatlik, raqamli jamiyat, raqamli sanoat va xizmatlar sohalarida tadqiqot olib bormoqda¹⁸.

Shunday tadqiqotlardan biri Eynshteyn markazidagi Kelajakdagi xavfsizlik laboratoriyasi (Digital Future BMBF) "Fuqarolik xavfsizligini tadqiq qilish" asosli dasturi bo'ladi¹⁹. Mazkur dastur doirasida Federal Ta'lim va tadqiqot vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan Berlin Erkin universitetida "Jamoat xavfsizligi bo'yicha tadqiqot forumining kelajak laboratoriyasi" loyihasi ekspertlar uchun amaliy dasturlarni xabardor qilish, muhokama qilish va sinab ko'rish uchun platforma ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot aniq taqdimotlar va vaziyatga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyati orqali hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini beradi.

"Kelajak xavfsizligi laboratoriyasi xavfsizlik va xavf-xatar ko'nikmalarini o'rgatishda yangi zamin yaratmoqda, biz xavfsizlik masalalarini tanqidiy tekshirishni boshlashni va ijtimoiy muloqotga hissa qo'shishni xohlaymiz ", deb tushuntiradi loyiha

¹⁶ vgl. § 34 a GewO; Einzelheiten sind in der dazu ergangenen Bewachungsverordnung geregelt // <https://www.bpb.de/themen/innere-sicherheit/dossier-innere-sicherheit/76663/private-sicherheitsdienste/> (murojaat sanasi: 24.06.2024)

¹⁷ Näheres ist in den §§ 28 ff. Waffengesetz geregelt // https://www.gesetze-im-internet.de/waffg_2002/_28.html (murojaat sanasi: 24.06.2024)

¹⁸ <https://www.digital-future.berlin/ueber-uns/einstein-center-digital-future/>

¹⁹ <https://www.digital-future.berlin/haus-der-digitalisierung/future-security-lab/>

menejeri va Berlin Erkin universitetining fanlararo xavfsizlik tadqiqoti professori Lars Gerxold²⁰.

Ta'kidlash joizki, mazkur xavfsizlik kelajagi laboratoriyasi xavfsizlikni tadqiq qilish sohasidagi mutaxassislar guruhlar, tabiiy ofatlar va fuqaro muhofazasi, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim qarorlar qabul qilishda ilmiy mavjud muammoga ilmiy yondashish orqali eng samarili yechimga kelish imkoniyatini beradi. Germaniyada davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasida ish tajribasini almashish va o'qitish bo'yicha turli dasturlar amalga oshiriladi. Bu dasturlar orqali xavfsizlik xizmati xodimlari o'rtasida hamkorlik mustahkamlanadi. Bunda Milliy xavfsizlik o'quv dasturlari (National Security Training Programs) xavfsizlik xizmati xodimlarini malakasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularda davlat va xususiy sektor vakillari birgalikda ishtirok etadi.

Germaniyada ko'plab xavfsizlik loyihalari davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasida ko'psonli hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Bu loyihalarda har ikkala sektorning malakali mutaxassislari faol ishtirok etib, xavfsizlik xizmatlarini taqdim etishadi.

Ta'kidlash joizki, ko'psonli maslahat dasturlari (Cross-sector Consultation Programs): xavfsizlik xizmati ko'rsatilishida ko'psonli maslahat va strategik hamkorlik dasturlari orqali ish jarayoni optimallashtiriladi.

Germaniyada jamoat xavfsizligini ta'minlashda xavfsizlik xizmatlari xodimlari malakasini oshirish va sertifikatsiya dasturlari orqali doimiy yangilanish va yaxshilanishga intiladi. Bu dasturlar davomida xavfsizlik xizmati xodimlari yangi texnologiyalar va xavfsizlik standartlari bo'yicha bilim olishadi. Sertifikatsiyalash dasturlari (Certification Programs): Maxsus kurslar va amaliy mashg'ulotlarni o'tash orqali xavfsizlik xodimlari zaruriy sertifikatlarni olishadi.

Germaniyada ham DXSH loyihalarini nazorat qilishni mahalliy hukumat idoralari amalga oshiradi. Ular davlat-xususiy hamkorlik loyihalarining qoidalariga rioya qilinishini va sifat nazoratini ta'minlaydi. Mahalliy hokimiyat idoralari ulushi jamoat manfaatlariga muvofiqligini kuzatadi va zarur hollarda o'zgarishlar kiritadi.

E'tirof etish joizki, Germaniyada jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvofiqlashtirish va malaka oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari yuksak darajada tashkil etilgan. Bu dasturlar xavfsizlik xizmatlarini yuqori sifatda taqdim etish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hamkorlik orqali resurslar samarali ishlatiladi va xavfsizlik xizmatlari sifat jihatdan yaxshilanadi.

Bugungi kunda Germaniyada davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan ijobiy jihatlar bilan bir qatorda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud. Zero, xususiy shaxslarning faoliyati asosan "yordamchi faoliyat" ni qamrab olib, ular fuqarolarning faoliyatiga to'sqinlik qilishga haqli emas. Shunga qaramay, politsiya va xususiy shaxslar o'rtasidagi hamkorlik quyidagi sabablarga ko'ra ayrim nomuvofiqliklar mavjud:

- hamkorlikda davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashga xodimlar jalb qilinganda vakolat doirasining aniq belgilab berilmaganligi (masalan, hamkorlikda patrul xizmatini o'taganda, aynan kim qaysi vakolatlarga ega ekanligi belgilab berilmagan)

²⁰ <https://www.digital-future.berlin/haus-der-digitalisierung/future-security-lab/>

- ayrim hollarda davlat asosiy pudratchi bo'lsa-da, lozim vaziyatlarda jamoat xavfsizligi ta'minlash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda xususiy xizmat ko'rsatuvchi provayderlar xizmatiga tayanib qolib ular tomonidan ilgari suriladigan qarorlarni qabul qilish amaliyotining shakllanganligi;

- davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashga ham davlat ham xususiy sektordan jalb etilgan shaxsiy tarkibning umumiy vakolatlari doirasining belgilanmaganligi (Masalan, jismoniy kuch ishlatish huquqini beradigan o'zini-o'zi himoya qilish holati mavjudmi yoki yo'qligi aniq emas);

- davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarda ishtirok etuvchilarning faoliyati va malakasining yetishmasligi ("Arzon kompaniyalar"ning faoliyati yo'lga qo'yilishi tizimga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi).

Rivojlangan davlatlardan bo'lgan AQShda ham jamoat xavfsizligini ta'minlanishda davlat-xususiy sheriklikning keng qo'llanishi kuzatiladi. Xususiy xavfsizlik kompaniyalari ko'plab jamoat joylari, tadbirlar va transport tizimlarida xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, xavfsizlik sohasidagi texnologik yangiliklar va yechimlar joriy etiladi.

AQShda ham ommaviy hujumlar doimiy muammo va jiddiy tashvishlar keltirib chiqarishi, jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. AQSh Maxfiy xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda Qo'shma Shtatlarda jamoat joylarida 27 ta ommaviy hujum uyushtirilib, 91 kishi halok bo'lgan.

2017-yilda 28 ta ommaviy hujum 147 kishining hayotiga zomin bo'lgan. So'nggi yillarda AQSh zamonaviy tarixidagi eng halokatli ommaviy hujumga guvoh bo'ldi, jumladan 2017 yilda Las-Vegasdagi ochiq havoda kontsertda otishma bo'lib, 58 kishi halok bo'ldi va 869 kishi jarohat oldi²¹.

AQShda DXSH modeli orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashda, xususiy sektor ko'plab xavfsizlik xizmatlarini taqdim etishga jalb qilinadi. Bunga qo'riqlash xizmatlari, nazorat va kuzatuv tizimlari, evakuatsiya va favqulodda vaziyatlar boshqaruvi kiradi. Bu dastur DHS (Department of Homeland Security²² - Ichki xavfsizlik boshqarmasi) orqali amalga oshiriladi va jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun xususiy sektor bilan hamkorlikni yo'lga qoyishni o'zida mujassam etadi.

Ichki xavfsizlik boshqarmasi federal, shtat, mahalliy va xalqaro hamkorlar bilan jamoat xavfsizligi ta'minlash, giyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi kurashish, mamlakat bo'ylab faoliyat yurituvchi zo'ravon to'dalar tahdidlarini bartaraf etish uchun hamkorliklarni yo'lga qo'ygan.

AQSh bo'ylab strategik jihatdan joylashtirilgan Ichki xavfsizlik boshqarmasi boshchiligidagi Chegara xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishchi guruhi (BEST - Border Enforcement Security Task Force) guruhlaridan foydalangan holda, Ichki xavfsizlik boshqarmasi va uning ishchi guruhi xodimlari fentanil, heroin, boshqa xavfli opioidlar, sintetik giyohvand moddalar, metamfetamin va boshqalarni noqonuniy ravishda

²¹ https://www.dhs.gov/sites/default/files/publications/19_0920_plcy_strategic-framework-countering-terrorism-targeted-violence.pdf

²² <https://www.dhs.gov/>

kiritadigan va tarqatadigan transmilliy jinoiy tashkilotlar tomonidan yo'lga qo'yilgan gilyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi samarali kurashib kelmoqda²³.

Ichki xavfsizlik boshqarmasi AQSh hukumatining MS-13 va boshqa transmilliy jinoiy to'dalarni aniqlash, ularga kirib borish, ularni yo'q qilish hamda ularga Markaziy Amerika va Qo'shma Shtatlarda zo'ravonliklarni kuchaytirish uchun foydalaniladigan noqonuniy mablag'larga ega bo'lishiga to'sqinlik qilish borasidagi sa'y-harakatlarida alohida ahamiyat kasb etadi²⁴.

AQShda transport xavfsizligi va infrastrukturani himoya qilish davlat va xususiy sektor o'rtasida yaxshi o'rnatilgan hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Korxonalar va hukumat idoralari xavfsizlikni ta'minlash uchun birgalikda faoliyat yuritadilar.

Transport xavfsizligi boshqarmasi (Transportation Security Administration TSA) va xususiy xavfsizlik kompaniyalari hovlilar, aeroportlar va jamoat transport tizimlarida xususiy xavfsizlik kompaniyalari ham davlat tashkilotlari bilan birga nazorat va xavfsizlik xizmatlari bilan bog'liq faoliyati Transport xavfsizligi boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan 2018-2026 yillarga mo'ljallangan Strategiya²⁵ ga muvofiq tashkillashtiriladi. Bu xavfsizlik tadbirlarini yaxshilashga va jamoat yerusti transport tizimlarida tahdidlarni kamaytirishga yordam beradi.

Transport xavfsizligi tarmog'ida yetakchi sifatida Transport xavfsizligi boshqarmasi aviatsiya xavfsizligining global bazaviy darajasini oshirishga harakat qiladi.

Kuchli va moslashuvchan aniqlash qobiliyatlari, razvedkaga asoslangan operatsiyalar va kengaytirilgan tekshirish, operatsiyalarni kuchaytirish, hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi kuchli hamkorlik orqali transport xavfsizligi missiyasida muvaffaqiyatning ajralmas qismi bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, xavfsizlik xizmati ko'rsatilishida xususiy sektor politsiya bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Xususiy qo'riqlash kompaniyalari va politsiya bo'limlari birgalikda jinoyatchilik soni oshib ketgan hududlarda patrullik xizmatini tashkil etish orqali xavfsizlikni ta'minlaydilar. Bunda AQShda Qo'shnihilik nazorati dasturlari (Neighborhood Watch Programs) ishlab chiqilgan. Bu dasturlar xususiy sektor va aholi o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga olib, politsiya va aholi o'rtaqsida hududda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hamkorlikni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Huquq-tartibot idoralarining ko'magida mahalla yoki mahalla atrofidagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha guruhlarining aksariyati tashkil etilgan. O'z vaqtlari va resurslarini ayamaydigan ko'ngillilar odatda bunday dasturlarning markazida bo'lishadi, chunki ko'pchilikning rasmiy byudjeti yoki moliyalashtirish manbasi mavjud emas. Bir tadqiqot (Garofalo va MakLeod, 1988) shuni ko'rsatdiki, qo'shnihilik nazoratining aksariyati yakka tartibdagi uylar, yoki tijorat tashkilotlari va amaldagi manzilida besh yildan ortiq yashagan aholi yashaydigan hududlarda joylashgan²⁶. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdi-ki, dasturlarning aksariyati har qanday jinoyatchilarni oldini olish uchun dastur mavjudligini ko'rsatish uchun ko'cha belgilaridan foydalanilgan.

Rosenbaum (1988) ta'kidlaganidek, agar ijtimoiy tartibsizlik muammo bo'lsa va ijtimoiy nazoratning an'anaviy agentlari endi yetarli darajada ishlamasa, biz norasmiy

²³ <https://www.dhs.gov/hsi/priorities/ensuring-public-safety>

²⁴ <https://www.dhs.gov/hsi/priorities/ensuring-public-safety>

²⁵ https://www.tsa.gov/sites/default/files/tsa_strategy.pdf

²⁶ <https://www.nnw.org/about-neighborhood-watch>

ijtimoiy nazoratni kuchaytirish va "qo'shnichilik tuyg'usini" tiklashning muqobil usullarini izlashimiz kerak²⁷. Bejizga Neighbourhood Watch kontsepsiyasidan nafaqat Amerika balki bir qator boshqa davlatlar ham undan foydalanib kelmoqda. Masalan, Prezident Nelson Mandela Janubiy Afrika xalqidan o'z mahallalari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlarini, yonidagi uylarni kuzatib borishni talab qildi. U bu iltimosni jinoiy faoliyatning oldini oladi degan umidda qilgan.

AQShda jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik modeli samarali bo'lib, xalq ishonchini qozonishda muhim rol o'ynaydi. Politsiya, xususiy xavfsizlik kompaniyalari va texnologik hamkorlar birgalikda ishlash orqali tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rishadi. Bu model xavfsizlik resurslaridan optimal foydalanishga yordam beradi va xalqning xavfsizlik darajasini samarali ta'minlanishiga xizmat qiladi. Chet elda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida davlat-xususiy sheriklikning muvaffaqiyatli qo'llanilishini ko'rib chiqaylik:

AQSh. Xususiy qo'riqlash kompaniyalari: AQShda xususiy qo'riqlash kompaniyalari politsiya bilan yaqin hamkorlikda ishlab, jamoat tadbirlarida, o'quv muassasalari va tijorat obyektlarida xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu politsiyaga maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan murakkab vazifalarga e'tibor qaratishga imkon beradi.

Texnologik yechimlar: Videokuzatuv kameralari, yuz tanish tizimlari va intellektual tahlil tizimlari kabi texnologiyalarni joriy etish ko'pincha xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Kompaniyalar zamonaviy yechimlarni ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanadi, keyinchalik ular jamoat xavfsizligi infratuzilmasiga integratsiya qilinadi.

Buyuk Britaniya. **Safe City dasturi:** Bu dastur doirasida xususiy kompaniyalar monitoring, ma'lumotlarni tahlil qilish va inqirozli holatlarni boshqarish bo'yicha texnologiya va xizmatlar taqdim etadi. Xususiy sektor bilan sheriklik shaharlarda xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlashga imkon beradi.

"Raqqamli London" loyihasi: Bu loyiha Internet narsalar (IoT), katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellektdan foydalangan holda aqlli shahar infratuzilmasini yaratishga qaratilgan. Xususiy kompaniyalar ushbu texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda faol ishtirok etadi.

Avstraliya. **Infratuzilmani qo'riqlash:** Avstraliyada xususiy kompaniyalar ko'pincha aeroportlar, portlar va energetika obyektlari kabi muhim infratuzilmani qo'riqlash bilan shug'ullanadi. Bu davlatga resurslarni tejash va xavfsizlik darajasini oshirishga imkon beradi.

Kiberxavfsizlik: Xususiy sektor davlat muassasalari va muhim infratuzilma obyektlarining kiberxavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etadi. Bu hamkorlik kiber tahdidlar haqida ma'lumot almashish, himoya yechimlarini ishlab chiqish va kiberxavfsizlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Singapur. **Safe City tizimi:** Singapurda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks tizim amalga oshirilgan bo'lib, unda videokuzatuv kameralari, datchiklar va tahlil platformalari mavjud. Xususiy kompaniyalar ushbu texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda asosiy rol o'ynaydi.

²⁷ <https://www.nnw.org/about-neighborhood-watch>

Xususiy moliyalashtirish: Singapur jamoat xavfsizligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun xususiy investitsiyalarni faol jalb qiladi, bu esa eng yangi ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi.

Chet el tajribasi shundan dalolat beradiki, davlat-xususiy sheriklik jamoat xavfsizligini ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu davlat va xususiy sektorning resurslari, bilim va texnologiyalarini birlashtirib, fuqarolar uchun xavfsizlik darajasini oshirishga imkon beradi. Shunday sheriklikning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun aniq huquqiy doiralar, sheriklar o'rtasida ishonch va hamkorlik mexanizmlarining shaffofligi talab etiladi.

Xorijiy amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, jamoat xavfsizligida DXShning muvaffaqiyati texnologiya yoki moliyalashtirishning o'zi bilan emas, balki aniq huquqiy "chegaralar" va institutsional kafolatlar bilan belgilanadi. Eng barqaror modellarda davlatning eksklyuziv vakolatlari saqlanadi, xususiy sektor esa asosan infratuzilma, servis, texnik ekspluatatsiya va innovatsion yechimlar segmentida ishlaydi.

Risklarni muvozanatli taqsimlash, shartnomaviy dizaynning standartlashtirilishi, KPI/SLA orqali natijadorlikni o'lchash, kuchli davlat nazorati va audit, shaffoflik hamda korrupsiyaga qarshi komplaens, shuningdek ma'lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik talablari DXShning legitimligi va ijtimoiy ishonchini ta'minlaydi. Shu bois milliy tizimda DXShni rivojlantirishda qiyosiy tajriba asosida shartnomaviy standartlarni joriy etish, data governance va inson huquqlari kafolatlarini mustahkamlash, hamda sektorlar kesimida aniq "ruxsat etilgan yo'nalishlar"ni belgilash zarur.